ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 11 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

“1 OY – 4 MAHALLA” LOYIHASI DOIRASIDA JIYDAKAPA MAHALLASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI QIYOFASI

Fazliddinov Jaloliddin Shuxrat o'g'li
Namangan viloyati Uychi tumani Jiydakapa MFY Yoshlar yetakchisi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24071455

Mahallamiz yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sportga jalb qilish va eng muhimi, salbiy ta’sirlardan asrashga qaratilgan tizimli ishlarning bir bo‘lagi.

Chunki yoshlar bilan ishlashda ba’zan bitta maydoncha, bitta kitob, bitta kasb yoki birgina suhbat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir yoshning qiziqishi, muammosi va imkoniyati turlicha. Demak, ularga yondashuv ham bir xil bo‘lishi mumkin emas.

Uychi tumani Jiydakapa mahallasida ham yoshlar bilan ishlashda zamonaviy va amaliy yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “1 oy – 4 mahalla” loyihasi doirasida yoshlarning qiziqishlari, ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli ma’naviy-ma’rifiy, sport, ta’lim va kasb-hunarga yo‘naltirilgan tadbirlar tashkil etilmoqda.

“1 oy – 4 mahalla” loyihasi doirasidagi ishlarning asosiy maqsadi — mahalladagi har bir yoshning imkoniyatini ko‘ra bilish, uni qo‘llab-quvvatlash va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlashdir.

Yil boshida mahallada 12 nafar ishsiz, og‘ir toifadagi yosh aniqlangan. Ularning har biri bilan ishlash uchun alohida yondashuv zarur edi. Natijada 5 nafar yosh zamonaviy kasblar, IT texnologiyalari va xorijiy tillarga o‘qitildi.

Dehqonchilik qilish istagidagi bir yoshga 30 sotix yer maydoni ajratildi. Daromad manbaiga ega bo‘lib, norasmiy faoliyat yuritayotgan 1 nafar yosh esa soliq tizimi orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida rasmiylashtirildi 2 nafar yoshlarimizni esa doimiy ish o’rinlariga joylashtirilib bandligi ta’minlandi.

Tadbirkorlikka qiziqish bildirgan yana bir yoshga 30 million so‘m miqdorida kredit ajratildi.

Bu natijalar bir narsani ko‘rsatadi: yoshlar bandligi faqat “ishga joylashtirish” bilan cheklanmaydi. Kimdir uchun doimiy ish o‘rni muhim bo‘lsa, boshqasi uchun kasb o‘rganish, yer olish yoki tadbirkorlik boshlash imkoniyati muammoning yechimi bo‘lishi mumkin.

Maktab yoki oliy ta’lim muassasasini tamomlagan yosh oldida odatda bitta muhim savol turadi: endi nima qilaman?

Jiydakapa mahallasida 2025–2026-o‘quv yilida jami 102 nafar bitiruvchi – 54 nafar maktab bitiruvchisi, 36 nafari oliy ta’lim bitiruvchilari va 12 nafar professional ta’lim bitiruvchilarining keyingi taqdiri bo‘yicha aniq ish olib borilgan. 54 nafari maktab bitiruvchisining barchasi keyingi bosqichga yo‘naltirilgan: 31 nafari oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan, 15 nafari esa mahalladagi murabbiylar, kasb egalari va tadbirkorlarga biriktirilib, ustoz-shogird tizimi asosida kasb o‘rganmoqda.

Professional ta’limni tamomlagan 12 nafar yoshning 4 nafari o‘zini o‘zi band qilgan, 6 nafari doimiy ishga joylashtirilgan.

Oliy ta’limni tamomlagan 36 nafar yoshning 30 nafari doimiy ish bilan ta’minlangan, 6 nafari esa ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirmoqda.

Demak, bu yerda asosiy e’tibor yoshning ta’lim muassasasini bitirgandan keyingi holatiga qaratilgan. Chunki diplomning o‘zi yetarli emas – u yoshning kelajakdagi faoliyatiga yo‘l ochishi kerak.

Yoshlar bilan ishlashda ularning o‘z tashabbusiga tayanish ham muhim. Jiydakapa mahallasida tashkil etilgan “Qalqon” guruhi ana shunday tashabbuslardan biri. Guruh asosan harbiy xizmatga intilayotgan yoshlar va liderlardan tashkil topgan. Ular tungi reydlarda faol qatnashib, mahalladagi osoyishtalikni ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Bu yerda yana bir muhim jihat bor: yoshlarni faqat nazorat qilish emas, balki ularning o‘zini mahalla hayotidagi faol kuchga aylantirish.

Jaloliddin Fazliddinovning tashabbuslari faqat yoshlarning ta’limi, bandligi va bo‘sh vaqtini tashkil etish bilan cheklanmaydi. Uning tashabbusi bilan tashkil etilgan “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida mahalladagi yoshlar bilan birgalikda 1 200 tup mevali va manzarali daraxt ekilib, yoshlar bog‘i yaratilgan.

Yoshlar yetakchisi faoliyatini faqat nechta tadbir o‘tkazilgani yoki nechta yosh loyiha ishtirokchisiga aylangani bilan o‘lchash qiyin. Asosiy mezon – yoshlar yetakchiga muammosi bilan murojaat qila oladimi? O‘zining kelajagi haqida suhbatlashish uchun uni izlaydimi? Biror noto‘g‘ri yo‘lga kirib qolishdan oldin maslahat so‘raydimi?

Jiydakapa mahallasidagi faoliyatga nazar tashlaganda, aynan shu ishonchni shakllantirishga intilish seziladi. Fazliddinov Jaloliddin Shuxrat o’gli shu yil Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonlaridan mustaqilligimizning 35-yilligi ko’krak nishoni bilan taqdirlandi bu bilan yoshlar bilan ishlashda yanda kuch-quvvat va g’ayrat beradi.

Oldinda hali vazifalar bor

Kelgusida ham mahallada yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularni ta’lim, sport, madaniyat, kasb-hunar va tadbirkorlik yo‘nalishlariga keng jalb etish hamda “1 oy – 4 mahalla” loyihasi doirasidagi samarali ishlarni yanada kengaytirish maqsad qilingan.

Albatta, erishilgan natijalar ishning yakuni emas.

Jiydakapa mahallasida yoshlarning tadbirkorlikka bo’lgan qiziqishini yanada oshirish, zamonaviy kasblarga qiziqishini kuchaytirish, iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va ularni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish zarur.

Shu ma’noda mahalla idorasi oldida tashkil etilishi ko‘zda tutilayotgan “Sport maydonchasi” loyihasi ham e’tiborga molik. U yoshlarni sportga jalb etish, sog’lom turmush tarzi va shaxsiy rivojlanish uchun yangi muhit yaratishi mumkin.

Yana bir muhim vazifa – qishloqdagi iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni o‘qitish, qo‘llab-quvvatlash va jamiyat hayotiga faol jalb etish tizimini yanada takomillashtirish. Chunki yoshlar yetakchisining vazifasi faqat muammoni bartaraf etish emas. Eng muhimi, yoshning ichidagi imkoniyatni ko‘ra bilish.

Jiydakapa mahallasidagi 1097 nafar yoshning har biri – alohida bir hikoya. Kimdir kitob o‘qib o‘z yo‘lini topadi, kimdir til o‘rganib dunyoga chiqadi, yana biri kasb egallab oilasiga daromad keltiradi, boshqasi sport orqali o‘zini namoyon etadi.

Jaloliddin Fazliddinovning vazifasi esa ana shu hikoyalarning qaysi biri qanday davom etishini belgilashda yoshlarga hamroh bo‘lish.

Zero, yoshlar bilan ishlash – raqamlarni ko‘paytirish emas, imkoniyatlarni ko‘paytirishdir.